

## YAPON TILI IYEROGLI FLARNI ZAMONAVIY MULTIMEDIA VOSITALARI MUHITIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

*F. Lutfilloyeva<sup>1</sup>*

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolada yapon tilini o'qitishda zamonaviy multimedia texnologiyalari va tarmoq vositalaridan foydalanishning afzalliklari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Maqolada, an'anaviy ta'lim usullarining yapon tilidagi iyerogliflarni o'rganishda samaradorligi yetarli emasligi, multimedia vositalarining esa bu kamchiliklarni bartaraf etishda muhim rol o'ynashi haqida aytiladi. O'quv jarayonida multimedia texnologiyalari yordamida talabalar bilimlarni mustaqil qidirib topish, tahlil qilish va xulosalar chiqarishga o'rgatiladi, bu esa ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Maqolada, shuningdek, multimedia yordamida iyerogliflarni o'qitishning samaradorligi, vizual tasvirlar, audio-video materiallar va interaktiv platformalar yordamida til o'rganish jarayonini qanday qilib qiziqarli va samarali qilish mumkinligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Maqola yapon tili ta'limini takomillashtirish bo'yicha takliflar va yangi o'qitish modellarini yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

*Kalit so'zlar:* yapon tili, iyerogliflar, multimedia texnologiyalari, ta'lim, interaktiv o'qitish, tarmoq yordamida o'qitish, an'anaviy ta'lim, aralash ta'lim, motivatsiya, ta'lim islohoti.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/eac8gb16>

---

Hozirgi kunda zamonaviy ta'limning tezkor rivojlanishi bilan birgalikda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada ko'paymoqda. Jumladan, yapon tilini o'qitishda multimedia texnologiyasidan foydalanish va o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishning sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'qituvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy multimedia texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini ham bajaradi.

Ta'lim islohotining hozirgi bosqichida multimedia vositalari orqali o'qitish usullari va ta'lim rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda va bu ko'plab olimlarni qiziqtirmoqda. Multimedia muhitdan foydalangan holda o'qitishda talaba yoshlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi sharoitida multimedia va tarmoq texnologiyalari chet tillarini o'qitishda keng qo'llanilmoqda [1]. Yapon tilini o'qitishda an'anaviy ta'lim usullari endi jamiyatning yuqori sifatli, innovatsion yapon tili mutaxassislariga bo'lgan talabini qondira olmayapti. An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi sinfning asosiy ishtirokchisi bo'lib, talabalar passiv rol o'ynaydi va bilimlarni qabul qilish usuli indoktrinatsiya (o'qituvchining tayyor bilimlarni o'rgatishi) shaklida bo'ladi. Shu sababli, yangi asosiy yapon tili o'qitish modelini yaratish zarurati tug'ilmoqda [2]. Asosiy yapon tilini o'qitishda multimedia va tarmoq yordamida ta'lim berish yapon tili ta'limini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi, lekin bu usulda ham ba'zi kamchiliklar mavjud [3]. Yapon tili o'qituvchilari

---

<sup>1</sup> *Lutfilloyeva Faxriniso Maxmudovna, Samarqand davlat chet tillar instituti, Yapon filologiyasi kafedrasida dotsenti*

tomonidan samarali yangi o'qitish modellarini ishlab chiqishlari kerak bo'lgan muhim masala bo'lib qolmoqda [4]. Zamonaviy jamiyat axborot va bilimlarga tayanadi. Bugungi kunda multimedia vositalari hamda axborot va kommunikatsion texnologiyalarining o'quv jarayonga tadbiiq etilishi ta'lim sifatining yanada samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarning doimiy rivojlanishi bilan birgalikda multimedia yordamida kengaytirilgan turli xil aqli qurilmalarning paydo bo'lishi va kundalik hayotda qo'llanilishi ommalashgan. Bu esa jamoaning kundalik hayotiga qulayliklar olib kelishi bilan birgalikda ta'lim sohasida ham muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, internetdagi onlayn ta'lim rejimida ham o'qituvchi va talabalar bir vaqtning o'zida axborot texnologiyalar yordamida o'qitish va o'rganish jarayonlarini internet orqali amalga oshirishlari mumkin. Aynan multimedia muhitida o'qituvchilarning dars berishi ta'lim jarayonini yanada yangi talqinda shakllanishiga, ta'limdagi ustuvor yo'nalishlari yanada aniqroq tusga kirishiga hamda talabalar o'qish jarayonida yanada faol bo'lishini va ta'lim samarasi ham sezilarli darajada oshishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, Xitoy universitetlari ham yapon tilini o'qitishda "multimedia+ta'lim" usulini joriy etdilar[5]. Shular qatorida, yapon tilidagi ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC), mikrokurslar va boshqa shakllar aralash ta'lim usullari bo'lib, ular ko'plab universitet va kollejlar uchun ta'lim jarayonini amalga oshirishda ajralmas vosita bo'lib, "Multimedia + ta'lim" konteksti ostida yapon tilidagi aralash ta'limning faol rolini to'liq namoyon qilish va multimedia vositalarini an'anaviy o'qitish bilan organik ravishda uyg'unlashtirish bugungi kunda oliy ta'limda muhim masalaga aylangan. Aralash ta'lim usuli nafaqat talabalarning yapon tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi, balki o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytiradi, natijada yapon tili ta'limining mazmuni boyitilib, ta'lim samaradorligi optimallashtiriladi. Shuning uchun, Xitoy ta'limining rivojlanishi uchun yapon tilini onlayn tarzda qanday o'qitish va yapon tili ta'limining sifatini ta'minlash masalasini o'rganish juda muhimdir.

Bu borada, yapon tilidagi iyerogliflarni o'qitishda aralash ta'lim usulini dars jarayonida qo'llash talabada tilga bo'lgan to'siqni bartaraf etish, iyeroglif belgilarni oson esda saqlab qolish hamda yapon tilida so'z boyligini oshirishda samarali hisoblanadi. Yapon tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun iyerogliflarni yodlash va ularning ma'nolarini eslab qolish katta qiyinchilik tug'diradi. Yapon tili iyerogliflari murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularni to'g'ri yozish, talaffuz qilish va ma'nosini o'zlashtirish vaqt va sabr talab qiladi. Bu jarayonda multimedia vositalari o'quvchilarga katta yordam beradi.

Yapon tili iyerogliflarini multimedia vositalari yordamida o'qitishning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib, bularga Vizual tasvirlar, audio va video materiallar, interaktiv usullar hamda talabada motivatsiyani ko'taruvchi usul sifatida ham qo'llash mumkin. Virtual tasvirlar orqali iyerogliflarni interaktiv grafiklar yordamida o'rganish talabaning visual xotirasini kuchaytiradi. Rasm va animatsiyalar orqali iyerogliflarning kelib chiqishi va ma'nosini anglash oson bo'ladi. Audio-video materiallar yordamida Darsliklarga audio fayllar qo'shish orqali iyerogliflarning to'g'ri talaffuzini o'rganish mumkin. Shu bilan birga, videodarslar orqali iyerogliflarning yozilish qoidalarini o'rganish jarayonini ham tezlashtiradi. Multimedia platformalari orqali o'quvchilar iyerogliflarni yozib ko'rishlari, tuzilgan testlar orqali bilimingizni sinab ko'rishlari va o'zlari uchun individual dars rejasini tuzishlari mumkin. Multimedia vositalari bilan o'qitish o'quvchilarni o'rganishga qiziqtiradi, chunki bu usul an'anaviy kitob o'qishdan farqli o'laroq, o'yinga o'xshash jarayonni taklif qiladi. O'yin orqali o'rganish ("gamification") motivatsiyani oshiradi va bilimlarni samarali mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida yapon tili iyerogliflarini multimedia vositalari orqali o'rgatishda quyidagi dasturlardan keng foydalanish mumkin:

Mobil ilovalar: Duolingo, Memrise, Anki kabi ilovalar yapon tilini o'rganish uchun qulay bo'lib, ular orqali iyerogliflar to'plamini yodlash va mashq qilish mumkin. Bundan

tashqari interaktiv dasturlar: Kyoiku, LingoDeer kabi dasturlar orqali interaktiv tarzda o'rganish samaradorligi oshadi. Bu dasturlarda har bir iyeroglifning ma'nosi, talaffuzi va yozilish qoidalari batafsil tushuntiriladi. Shuning bilan birgalikda YouTube va boshqa video platformalarda yapon tilini o'rgatuvchi kanallar orqali iyerogliflarni vizual va audio yordamida o'rganish imkoniyati mavjud. Ushbu platformalarda mavjud darslar talabalarni tezda jalb qiladi va iyerogliflarni eslab qolish jarayonini osonlashtiradi.

Yapon tili iyerogliflarini multimedia vositalari yordamida o'qitish bugungi kunda eng samarali usullardan biri bo'lib, u o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada tezlashtiradi va qiziqarli qiladi. Vizual va audio materiallar, interaktiv darslar hamda o'yin elementlari orqali iyerogliflarni o'rganish samaradorligi yuqori bo'lib, bu usul nafaqat o'rganish qiyinchiliklarini kamaytiradi, balki tilni mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, yapon tili ta'limida multimedia tarmoqlariga asoslangan o'qitish usuli an'anaviy ta'lim usullaridagi kamchiliklarni qoplashga va yapon tili asoslarini o'rgatishni sezilarli darajada yaxshilashga yordam beradi, ammo eski qarashlar, jihozlarning yetishmasligi, formalizm kabi muammolar ham mavjud. Yapon tili asoslarini o'rgatish hali uzoq yo'lni bosib o'tishi kerak. Multimedia tarmoqli muhitida yapon tili asosiy ta'limining yangi modelini yaratish jarayonida yapon tili o'qituvchilari an'anaviy o'qitish usuli bilan multimedia tarmoqlariga asoslangan ta'limni samarali ravishda uyg'unlashtirishi va doimiy ravishda o'qitish usullarini takomillashtirishi kerak. Yapon tili asosiy ta'limini isloh qilish uchun samarali chora-tadbirlarni taklif qilib, o'qitishning maksimal samaradorligiga erishish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Y. Shen and H. Yu, "Multimedia network teaching platform and its application in mechanical design," *International Journal of Electrical Engineering Education*, vol. 58, pp. 12-13, 2021.
- [2]. E. R. Halverson, *How the Arts Can Save Education: Transforming Teaching, Learning, and Instruction. Technology, Education—Connections ((e TEC Series), Teachers College Press, New York, NY, USA, 2021.*
- [3]. P. Li and J. Xiong, "Research on english teaching process supported by network multimedia technology in higher vocational colleges," *Journal of Physics: Conference Series*, vol. 1915, no. 4, Article ID 42052, 2021.
- [4]. Y. Yao and C. Ma, "A multimedia network english listening teaching model based on confidence learning algorithm of speech recognition," *International Journal of Electrical Engineering Education*, vol. 58, pp. 100-102.2021
- [5]. M. Tian and Y. Sun, "Research on the application of computer aided multimedia teaching technology in Japanese teaching," *Journal of Physics: Conference Series*, vol. 1744, no. 3, Article ID 32188, 2021
- [6]. Fakhriniso L. *The Japanese language teaching technologies based on computer simulation models //Asian Journal of Research in Marketing. – 2020. – T. 9. – №. 4. – C. 1-7.*
- [7]. Maxmudovna L. F. *The Role of Mnemotechnic Method in Teaching Japanese Language Hieroglyphs //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 12. – C. 69-72.*